

MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIY**Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya va buxgalteriya fakulteti talabasi

xonshams@gmail.com**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Muqimiy taxallusi ostidagi buyuk mutafakkir, zabardast davlat arbobi bo‘lmish Muhammad Mirzaxo‘ja Aminxo‘ja o‘g‘lining hayot yo‘li, ijodi, uning asarlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari tasviri tahlil qilingan. XIX–XX asrlarda jamiyatimiz hayotida yuz bergen jarayonlarning siyosiy-iqtisodiy jihatlari batafsil tasvirlangan. Bundan tashqari, o‘scha davrdagi ijtimoiy tuzum va iqtisodiy siyosat kabi tushunchalarning qay darajada noto‘g‘ri olib borilganligi va bugungi kunda ham ana shu muammolar mavjudligi talqin qilingan.

Kalit so‘zlar: Muqimiy, Muqimiy ijodi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, davlat siyosati, iqtisodiy qarashlar, aholi turmushining farovonligi.

Mustaqilikka erishgach hayotimizning har sohasida o‘zgarishlar bo‘lganidek, mumtoz adabiyotimizni ham o‘rganishga va uni ilmiy –ijodiy tahlil qilish orqali o‘zligimizni anglashga va o‘tmishimizning yopilgan sahifalarini qayta ochishga imkon yaratildi. Jamiyatimizning eng kata boylikalaridan biri, bu tarixda o‘zlarining o‘chmas izlarini qoldirgan byuk bobokalonlarimizning bizga qoldirgan asarlari desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Adabiyot ahli adabiy asarlari asosida ma’lum bir davrdagi jamiyatning dunyoqarashi, xoxishlari va nolalarini aks ettirish orqali, o‘scha davrdagi real hayotga asoslangan voqealarni jonlantirishga harakat qilganlar. Chunki, aynan mana shu asarlari xalqning har tomonlama rivojlanishiga, aholining ijtimoiy ongini oshirishga xizmat qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Boshqa hech qaysi omil adabiyotchalik jamiyat ongiga, uning dunyoqarashiga o‘zining kuchli ta’sirini o‘tkaza

olmaydi. Bu esa o‘z navbatida bizdan adabiyotga bo‘lgan qiziqishni oshirishni talab qiladi. Bizni butun dunyoga tanitishda o‘zlarining hissslaraini qo‘shgan shunday buyuk ajdodlarimiz bor ekan, nega biz ularning hayoti va ijodini, asarlarini o‘rganmasligimiz kerak? Nima ushun ularning hayot yo‘llaridan ibrat olmasligimiz kerak? Albatta biz bularni qilishimiz, ularning asarlaridan, ruboiy- g‘azallaridan o‘zmizga kerakli xulosalarni chiqarib, o‘sha xatolarni takrorlamaslikka xarakat qilishimiz darkor. Shuning uchun ham adabiy merosimizni nafaqat asrab- avaylash, balki undan oqilona fodalanish ham lozimdir. Bu orqali ayniqlsa, yoshlarimizning ongiga ezgu go‘yalarni singdirish va ulardagi ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirishga ershishimz mumkin.

Mustamlakachilik davrining ilk yillarda ravnaq topgan, millatning qalbidan joy olgan, ibratli hayot yo‘liga ega, milliy uyg‘onish adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lmish Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy o‘n to‘qqizinchi asr oxiri va yigirmanchi asr boshida jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga o‘zning munosib xissasini qo‘shgan adiblarimizdan biridir. Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li Muqimiy 1850- yilda Qo‘qon shahrining Bekvachcha mahallasida novvoy oilasida dunyoga kelgan. Muqimiy birinchi bo‘lib, mahallasidagi mulla Abduhalil mакtabida ta’lim oladi. So‘ng, Qo‘qondagi Hokim oyim madrasasida tahsil oladi. 1872-1873- yillarda esa buxorodagi madrasada o‘qiydi va uni tamomlagach Qo‘qonga qaytib keladi. Qaytib kelganidan so‘ng oila quradi. Ammo, bu uzoq vaqtga cho‘zilmaydi. O‘sha vaqttagi qiyinchiliklar, yo‘qchiliklar tufayli oilasi buziladi va natijada yana yolg‘iz o‘zi qoladi. Mustamlakachilik davrida Muqimiy egiladi, bukiladi, ammo, sinmaydi. Chunki u moddiy tomonlama boy inson bo‘lmasada, ma’naviy o‘ta kuchli shaxs sifatida tanilgan.

Muqimiyning ijodga, adabiyotga bo‘lgan qiziqishi yoshlik paytidanoq bshlangan. Bunga asosiy sabab esa, uning validasi bo‘lmish Oyshabibi aytib bergen ertaklari va hikoyalarining ta’siridir. Muqimiy butun hayotini mutolaa va ijod qilishga bag‘ishlaydi. Xattotlikni o‘rgangach esa bu uning asosiy tirikchilik manbayiga aylanadi. Bundan tashqari, u Qo‘qonda Zavqiy, Furqat, Muhayyir, Nisbat,

Nasimiy, Mavlaviy kabi adiblardan tashkil topgan guruhlarga boshchilik ham qiladi. Muqimiylar o‘zining asarlaridagi lirkasi va davrning hukmron boshqaruvchilarini va ularning olib borayotgan siyostlarini kuchli tanqid ostiga olib bir qancha hajviy asarlar, humorlari bilan jamiyat qalbiga kirib boradi va shuhrat qozonadi.

Muqimiydan bizgacha juda ko‘plab asarlari yetib kelmagan bo‘lsada, yetib kelganlarining orasida han taqsinga sazovorlari bir talaygina. U asosan she’riy janrda ijod qilgan bo‘lsada, uning asarlari o‘zining rang barangligi, badiiy-g‘oyaviy fikrlarga boyligi, xalqning dardini gavdalantira olganligi bilan ajralib turadi. U adabiyotimizni faqatgina boyitibgina qolmay, uni yuksak darajalarga olib chiqdi, ya’ni yangiliklar ham yaratdi. Muqimiy she’riy tarzda yozgan qiziqarli sayohatnoma asari, u tufayli badiiy maydonga keldi. Lekin, afsuski uning “Majmua”, “Devon”, “Bayoz”, kabi asarlari bizgacha to‘liq yetib kelmagan. Buning sababi esa, Muqimiy o‘z qo‘lyozmlararini bir muqova ostida birlashtirmagan, ya’ni xar xil manbalarda uning adabiy merosidan parchalarni uchratishimiz mumkin.

Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy o‘z asarlarida faqatgina badiiy talqinlarni keltirmagan, balki, bugungi kunda ham bizga o‘rnak bo‘lishga arziydigan hayot tarzi va hozirgi kunda dolzarb bo‘lgan bir qancha iqtisodiy muammolarni, davlat boshqaruvidagiadolatsizliklar va ularning yechimlari borasida o‘z qarashlarini bayon qilgan. Shuning uchun ham, uning asarlarini o‘rganish davomida mustamlakachilik davridagi mamlakatning iqtisodiy ahvoli, ijtimoiy hayotini tahlil qilish mumkin va ana shu jihatlari bilan ham unung adabiy merosi boshqa mutafakkir allomalarimiznikdan farq qiladi. Muqimiy yashab, ijod etgan davr o‘ta og‘ir bo‘lishoga qaramay u qo‘rqmasdan xalqning faryodini, yuqori lavozimdag rahbarlarning boshqaruv tizimini va mamlakatdagi soliq tizimini muhokama qila olgan va buni o‘zining asarlarida hajviy tarzda tasvirlab bergen. Bundan tashqari yuqorida aytib o‘tganimizdek uning “Sayohatnoma” asari orqali yangi ijod janri maydonga kelgan ekan, biz bu asarlarni o‘qib o‘sha davrdagi mamlakatning geografik tuzilishi, holati va joylardagi ijtimoiy muhitni o‘rganishimiz mumkin.

Muqimiy bir qancha janrlarda ijod qilishiga qaramay, uni merosining asosiy qismini hajviy janrdagi she’riy tarzda yozilgan asarlar tashkil qiladi. Uning yashayotgan hayoti ziddiyatlarga to‘la bo‘lishiga qaramasdan, ana o‘sha jamiyat hayotidagi asosiy muammolarni gavdalantirib berishga qodir bo‘lgan. Ayniqsa, iqtisodiy talqinlarida mamlakatda soliq yuki juda yuqoriligini va aholi buni to; lashga layoqatsizligi hamda buning natijasida aholining turmush tarzi og; irlashib borayotganligini tanqid ostiga olgan. Agar jamiyatdagi siyosat sh tarzda davom etsa, mamlakat aholisi qashshoqlikka yuz tutishi haqida ogohlanirishlar bergen. Ajablanarlisi shuki, bugungi kunda ham aynan qashshoqlik butun dunyodagi qlobal muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Muqimiyning asarlaridagi g‘oyalarni bugungi kun bilan bog;lar ekanmiz, ularning o‘zaro chambarcha bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Soliplardan tashqari u o‘zining asarlarida korrupsiyani ham talqin qilgan. Bu esa hozirgi kunda ayniqsa bizning mamlakatimizda ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.

Muqimiy hayoti davomida ana shunay qiyinchiliklar, adolatsizliklar, zulm-beshafqatliklarni ko‘rganidan keyin, davlat ishida ishlamaslikka qaror qilgan va umrining oxrigacha halol, oddiy hayot kechirishni afzal ko;rigan. Qolaversa, Muqimiyning aynan mana shu yo‘sinda ijod qilganiga yana bir sabab shuki, u oddiy, kamtar odamlarning hayotini o‘rgangan va o‘zi ham shunday hayot kechirgan. Uning asarları hayotiy tasvirlardan olinganligi uchun ham hali –hanuz uning ijodi qiziqish bilan o‘rganilmoqda va o‘zining ta’sirini yo‘qotgani yo‘q. U o‘zining asarları orqali mavjud muammolarga yechim topishga harakat qilgan hamda shu yo‘lda butun umrini sarflagan.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy asarlarini o‘rganish orqali uni iqtisodiyotga ham befarq bo‘limganligini sezishimiz mumkin. Ya’ni, u o‘z asarlarida o‘tgan og‘ir davrdagi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini to‘laqonligicha ochib bera olgan. Bundan tashqari, u shu darjada kamtar, saxiy, adolatparvar inson bo‘lganki, o‘zining hayotidan ham ko‘ra ko‘proq aholining tinchligi, farovonligi haqida qayg‘urgan. Bu esa odamiylik fazilatlarining eng yuqori cho‘qqisiga ega bo‘lgan insonlarga tegishli

xususiyatdir. Shu bilan birga, uning hayot yo‘li o‘rnak bo‘lishga arziydi. Chunki, Muqimiy doimoadolat tarafdori bo‘lgan va jamiyat rivoji uchun o‘zining kata hissasini qo‘sishiga uringan. U oddiy odam bo‘lishiga qaramasdan jamiyatning orasida o‘zining munosib o‘rnini topgan hamda hurmat qozongan buyuk shoirdir. Shu bois, Muqimiyning asarlarini faqatgina O‘zbekistonda emas, balki, butun dunyoga dong‘ini taratish lozim!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Yoqubov H., O‘zbek demokrat shoiri Muqimiy, T., 1953.*
2. *Ahmedov S. O‘zbek adabiyotida “Sayohatnoma” . , 1986.*
3. *Qayumov A., “G‘oziy” , T. 1959-yil,24-bet .*
4. *arboblar.uz. Tarjimaiy hol*